

ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O'G'LI FURQAT G'AZALLARIDA BADIY SAN'ATNING QO'LLANILISHI

Rasuljonova Robiya Sherzodbek qizi

*O'zbekiston Milliy universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi
2-bosqich 204-guruh talabasi*

Annotatsiya: *O'zbek mumtoz she'riyatining zabardast vakili bo'lmish Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat adabiyotimizda lirika, publitsistika, nasr, tarjimalar hamda ilmiy asarlari orqali o'chmas iz qoldirgan. Ushbu maqolada shoirning bir necha g'azallaridan baytlar tanlab olinib, undagi badiiy san'atlar tahlil etilgan va ular orqali g'azal qanday ma'no kasb etgani ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Badiiy san'at, g'azal, she'r, ma'no, tazod, tashbeh, istiora, ishtiyoq.*

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat o'zining lirik she'riyati bilan adabiyotimiz xazinasini boyitgan, ma'rifatchilik adabiyotining darg'alaridan biri shu bilan birga o'zbek publitsistikasiga tamal toshlarini qo'ygan zabardast ijodkordir. O'z davrida uning she'rlari adabiyot ixlosmandlari orasida shuhrat qozonadi. Muqimiydek zabardast shoir uning g'azallariga muxammas bog'lagani Furqatning ijod ahli orasida ham e'tirof topganligidan darak beradi. Furqat shu davrda "Hammomi xayol" nomli risola yozadi, "Chor darvesh", "Nuh manzar" asarlarini fors tilidan o'zbek tiliga o'giradi. She'rlarini to'plab, devon tuzadi. Furqat kabi ijodining dastlabki davrida — 21-22 yoshida devon tartib bergan shoirni o'zbek kitobxoni ko'rgan emas edi. Shoirning ijodida betakror g'azallar, muxammaslar salmoqli hisoblanib, ularda qatnashgan badiiy san'atlar ham xilma-xildir. Quyida Furqatning "Tortadur", "Bormasmiz" radifli hamda "Surmadin kozlar qaro" nomli g'azallaridagi lafziy va ma'naviy san'atlarni ko'rib chiqamiz.

Ne bilur Yusufki noz-u husn ila mag'rurdur,

Ul qadarkim ishq dardini Zulayho tortadur.

Furqatning "Tortadur" radifli g'azalining ushbu baytida Yusuf hamda Zulayho ismlari talmih san'atini yuzaga keltiradi. Talmih (ar. - nazar tashlash, chaqmoq chaqishi) - nazm yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, qissalar, she'r, masal yoxud maqollarga ishora qilishga asoslangan she'riy san'at.¹ Bu qahramonlar an'anaviy obrazlar bo'lib, asosan, mumtoz adabiyotda go'zallik va sof sevgi timsoli bo'lib gavdalanadi. An'anaviy obraz darajasiga kelishining asosiy sababi muqaddas Qur'oni Karimda Yusuf a.s. payg'ambarning nomi zikr qilingani hisoblanadi. Baytning mazmuni quyidagicha, husni bilan mag'rurlanayotgan Yusuf Zulayho ishq dardini tortayotganini qayerdan ham bilsin! Rivoyatlarga qaraganda, Yusuf a.s. shunchalar go'zal bo'lganki, hatto meva archayotgan qizlar unga termulib qo'llarini kesib yuborganini ham anglamagan ekan. Shu sababli bu yerda Yusuf payg'ambar husn timsoli bo'lib kelgan.

¹ D. Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari – T.: "TAMADDUN", 2022. – 228-bet

Biz ellar – faqr elimiz, parcha nong’a sabr aylarmiz,
G’araz dunyo uchun Iskandar-u Dorog’a bormasmiz.

Ma’nosi “Biz bir parcha nonga sabr qiladigan faqirmiz, boylik uchun Iskandar-u Doroga bormaymiz” bo’lgan “Bormasmiz” radifli g’azalining ushbu begona baytida qo’llangan “Iskandar”, “Doro” ismlari o’tmishda yashab o’tgan mashhur shoh va sarkarda bo’lib, baytda talmih san’atini yuzaga keltiradi. Tarixda Iskandar Zulqarnayn va Doro bosib olmoqchi bo’lgan yerlardan o’z davlatiga xiyonat qilib, mansab uchun dushman tomonga xizmat qilganlar ko’p bo’lgan. Baytdagi ma’no ayni shu voqealarga ishora bo’lib kelmoqda.

Ul qaro ko’z ko’zlariga surma bejo tortadur,
Balki andin dahr eli ortiqcha g’avg’o tortadur.

Ushbu baytda istiora san’ati qo’llangan. “Istiora” arabcha so’z bo’lib, “biror narsani omonatga olmoq” degan ma’noni anglatadi.² Istiora baytda o’xshatilayotgan shaxs yoki predmetning tushib qolib, faqatgina o’xshayotgan narsaning o’zi kelishidir. Masalan, yuqorida “ul qaro ko’zli yor” demay to’g’ridan to’g’ri “ul qaro ko’z” deb yor tasvirlab berilgan.

Gavhar osqon halqalar siymin banogo’shinda band,
Ko’rinur zulfi tunida subhi sodiqdek arang.

“Surmadin ko’zlar qaro...” g’azalidan olingan baytda ikki badiiy san’at qo’llangan istiora va tashbih. Tashbeh ikki narsa yoki tushunchani ular o’rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko’ra o’xshatish san’atidir.³ U -dek, -day, -simon, -ona, kabi, o’xshab, singari, yanglig’, xuddi, go’yo, bamisoli, andoqki vositalari bilan yuzaga chiqadi. Ikkinchi misrada “subhi sodiqdek” so’zi -dek vositasi orqali tashbeh san’atini hosil qilgan. “Zulfi tuni” birikmasi esa istioraga misol bo’la oladi. Sababi “tundek qora zulfi”dagi o’xshatilmish tushib qolib, o’xshamishning o’zi shu so’z vazifasida kelgan. Demak, istiora va tashbeh bir-biriga yaqin badiiy san’at bo’lib, ikkisi ham o’xshashlik ustiga quriladi. Bayt mazmunini “quloqdagi ziralar zulfining qoraligidan tong paytidek arang ko’rinadi” deb izohlashimiz mumkin.

Yo’q qutulmoqlig’ manga, ul ofati jon dastidin,
Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar xadang.

Yuqorida keltirilgan bayt she’riy san’atlarni yangi boshlayotganlar uchun biroz muammo bo’ladi. “Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar xadang” misrasidagi o’xshatishlar istiorami yoki tashbeh? Avvalo tahlil qilsak, “Yorning dastidan qutulolmayman, menga qasd qilgandek qoshlari kamon kipriklari esa o’q” degan ma’no yuzaga chiqadi. Avvalo, tashbehni to’rt unsur tashkil qiladi: mushabbah, mushabbahun bih, vajhi shabah va odoti tashbih. Ushbu unsurlarning barchasi ishtirok etgan o’xshatish tashbihi mufasssal deb ataladi. Agar ulardan vajhi shabah tushirib qoldirilsa, bunday o’xshatish tashbihi mujmal va agar odoti tashbih ham qatnashmasa, bunday o’xshatish tashbihi muqayyad deb ataladi. Tashbihi muqayyad tashbihi mufasssalga

² A. Hojiahmedov. Mumtoz badiyat lug’ati. -T.: Yangi asr avlodi, 2008. – 29-bet.

³ D. Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari – T.: “TAMADDUN”, 2022. – 226-bet

qaraganda o'xshatish belgisining kuchliligi bilan ajralib turadi. Demak, bu bayt tashbihi muqayyad hisoblanadi.⁴

Qoshlari ostida go'yo ikki fatton ko'zlari

Ikki hindu bachchadurkim yondashib yo tortadur.

Baytida tamsil san'ati ko'zga tashlanadi. Tamsil "misol keltirish" ma'nosini bildirib, she'r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'at turi hisoblanadi. Tamsil uchun, asosan, tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar, xalq ommasi hayoti, bolalar o'yinlari, tibbiyot olami, tarbiya jarayoni va boshqa holatlarga oid misollar tanlanadi. Yuqorida keltirilgan bayt misralarida ham shu holatni kuzatamiz. Furqat "Qoshlari ostidagi ikki fitnakor ko'zlari go'yo o'ynashib kamon tortgan ikki bolaga o'xshaydi" deya hayotiy misol bermoqda. Ya'ni ko'zlarning nozlanishi kamoning tortilishiga qiyoslanyapti.

Jon ila ko'ngul taloshur, ey sanam, dard-u g'aming,

Birni sol ko'nglimg'aki, jon birni tanho tortadur.

baytida uchta badiiy san'atni aniqlashimiz mumkin:

1. Nido – kimgadir murojaat qilish yo'li bilan hosil bo'luvchi san'at va u g'azalda undalma shaklida keladi. Birinchi misradagi "ey sanam" ayni shu badiiy san'atga misoldir;

2. Tanosub – she'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati. Misol uchun, go'zal so'zi aytilganda husn, chiroy, gulyuz vahokazo kabi so'zlar esimizga keladi. Bu so'zlar mazmun jihatdan yaqin, shuning uchun ham bir-biriga mutanosib deb qabul qilamiz. Birinchi misraning oxirida "dard" va "g'am" so'zlari tanosub san'atini hosil qilmoqda;

3. She'rda u yoki bu so'zni takror qo'llash san'atiga takrir (arabcha – "takrorlash") deyiladi. Baytda "ko'ngil" so'zi ikki marta takrorlanib kelgani uchun takrir san'atiga misol qilib olamiz.

Ul parivash ishqidin goh telbadurman, goh sog',

Chunki bordur oramizda gohi sulh-u gohi jang.

Mumtoz adabiyotda faol qo'llanuvchi yana bir badiiy san'at tazoddir. "Tazod" so'zi arabchada "qarshilantirish", "zidlantirish" degan ma'noni anglatadi ya'ni she'rda bir-biriga qarama qarshi so'zlar keladi. Baytda "telba" va "sog'", "sulh" hamda "jang" so'zlari to'la qarshilikni yuzaga keltirgan.

Javrlarkim, Furqat, ul sho'xi jajofo' ayladi,

Muncha bedod-u sitam qilmas musulmong'a farang.

Bu yerda ham "musulmon" va "farang" so'zlari tazod san'atini hosil qilgan. Ba'zan so'zlar o'z ma'nosida emas, faqatgina kontekstda zidlanadi. Masalan, yuqoridagi "sulh" va "jang" so'zlari o'z ma'nosida ham bir-biriga zid. Lekin "musulmon" va "farang" vaziyat taqozosi bilan zidlanyapti, chunki "farang" yevropalik, fransuz, degani.

⁴ D. Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari – T.: "TAMADDUN", 2022. – 226-bet

Malumki, fransuzlar musulmon hisoblanmaydi. Ayni shuning uchun maqtada yevropalik emas g'ayridin ma'nosida qabul qilishimiz lozim.

Kokulingdan bo'y olgan bog'ning tuprog'idur,
Bog'bon sotmoqqa doim mushki soro tortadur.

Misralardagi "bog'", "bog'bon" so'zlari ishtiyoq san'atining yorqin na'munasidir. Ishtiyoq (ar. - bir so'zdan boshqa so'z hosil qilish) - bir o'zakdan hosil bo'ladigan bir nechta so'zni bayt yo jumlada qo'llash san'ati.⁵ Ishqni pinhon tutarg'a bo'lma shaydo, ey ko'ngul, Mushk pinhon bo'lsa bo'yi oshkoro tortadur.

"Ey ko'ngil, ishni yashirishga urinma, zero mushkni berkitsang ham hidi uni oshkor qiladi" mazmunidagi bu baytda nido hamda irsoli masal she'riy san'atlari qo'llanangan. Irsoli masal (ar. - maqol yoki matal yuborish) - baytda maqol, matal va hikmatli so'zlarni keltirishga asoslangan she'riy san'at.⁶ "Mushk pinhon bo'lsa bo'yi oshkoro tortadur" misrasi hozirgi zamonimizdagi "Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi" degan o'zbek xalq maqoliga o'xshaydi. Shuning uchun ham bu baytdagi san'at tamsil emas, aynan irsoli masal bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy san'atlar she'rning ko'rki sanaladi. Mumtoz adabiyotimizning yirik vakili Furqat ijodida bu kabi san'atlarning mohirona qo'llangani o'quvchini o'ziga tarannum etish bilan bir qatorda hayratga ham solishi tabiiy hol. Shunday ekan, badiiy san'atlar xoh lafziy bo'lsin, xoh ma'naviy ularning g'azalda berajak ma'nosi beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Furqat. Saylanma. - T.: "Ma'naviyat", 2009. - 96 bet.
2. <https://tafakkur.net/surmadin-kozlar-qaro/zokirjon-xolmuhammad-ogli-furqat.uz>
3. Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekov. Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan 3- nashri. - T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2014. - 200 bet.
4. D. Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari - T.: "TAMADDUN", 2022. - 256 bet
5. S. Matchonov, Sh. Sariyev. Adabiyot. - T.: "SHARQ", 2011. - 82-bet.
6. A. Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat lug'ati. - T.: Yangi asr avlodi, 20088. - 196 bet.
7. <https://ziyonet.uz>

⁵ D. Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari - T.: "TAMADDUN", 2022. - 236-bet

⁶ D. Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari - T.: "TAMADDUN", 2022. - 229-bet